

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”
ilmiy-tadqiqot markazi**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336:371**

SODIQOV NARIMANJON SOBIROVICH

**PROFESSIONAL TA’LIMNI MOLIYALASHTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH VA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S Y E R T A S I Y A

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
professor F.I.Isayev**

Toshkent – 2025

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
I BOB.	PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH-NING NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1-§	O'zbekiston Respublikasida ta'lim olishning nazariy-huquqiy asoslari.....	11
1.2-§	Professional ta'limni moliyalashtirishning xorij tajribasi.....	21
1.3-§	O'zbekiston Respublikasida professional ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish.....	32
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	43
II BOB.	PROFESSIONAL TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA XARAJATLARNI MAQSADLI SARFLASH HOLATI TAHLILI.....	46
2.1-§	Professional ta'limni davlat byudjetidan moliyalashtirish holati tahlili.....	46
2.2-§	Professional ta'limni byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirishning joriy holati tahlili.....	61
2.3-§	Xarajatlarni maqsadli sarflanishida moliyaviy nazoratning ta'siri.....	74
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	87
III BOB.	PROFESSIONAL TA'LIM XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	91
3.1-§	Professional ta'lim xarajatlarini xalqaro tasniflagichlarga moslashtirish.....	91
3.2-§	Professional ta'limni moliyalashtirishni yangi innovatsion yo'nalishlari va xarajatlarni optimallashtirish yo'llari.....	100
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	115
	XULOSA.....	117
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	122
	ILOVALAR.....	132

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv tendensiyasi kuchayib, zamonaviy bilimlarga asoslangan iqtisodiy tizim kengayib borayotgan sharoitda professional ta'limning ahamiyati yuksalib bormoqda. Professional ta'lim odamlarni mehnat bozorida raqobatlasha oladigan ko'nikma va bilimlar bilan ta'minlaydi, innovatsiyalarni va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. "2020-yilda dunyo ta'limga 5 trillion dollar, ya'ni global yalpi ichki mahsulotning 4,33 foizini sarfladi. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, yuqori daromadli davlatlar 2020 yilda kam daromadli mamlakatlar sifatida ta'limga deyarli ikki baravar ko'p mablag' sarflagan"¹. Mamlakatlar ta'limni moliyalashtirish va xarajatlarni optimallashtirish muammolari bilan kurashayotgan bir paytda, ilmiy tadqiqotlar ushbu murakkab muammolarni hal qilishning muhim vositasi sifatida paydo bo'ladi.

Dunyo mamlakatlarida professional ta'limni moliyalashtirish va xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, professional ta'lim bilan bog'liq xarajatlarni baholash va ularni ma'lumotli ishchi kuchidan olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar bilan taqqoslash, davlat subsidiyalari, o'quv to'lovlari, stipendiyalar va kreditlar, ularning arzonligi va foydalanish imkoniyatiga ta'sirini baholash, malakaga asoslangan muqobil ta'lim modellarini o'rganish orqali xarajatlarni kamaytirish, xususiy sektorning professional ta'limni moliyalashtirish va ta'minlashdagi rolini xarajatlar va sifatga ta'sirini tahlil qilish, ta'lim xarajatlari va talabalar natijalari o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda professional ta'lim shaxsning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, bunda mamlakatning iqtisodiy ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy texnologik yutuqlar, mehnat bozoridagi malakali kadrlarga bo'lgan haqiqiy talab, ish beruvchilarning takliflari va uzluksiz ta'lim tamoyillari asosida amalga oshirilishi belgilangan. "Bugungi kunda 689 ta professional ta'lim

¹ <https://www.aljazeera.com/news/2023/9/8/back-to-school-which-countries-spend-the-most-on-education-2>